

DEPORTATSIYA SIYOSATI VA TALQINI

Davranova Malika

Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi ilmiy xodimi

Annotatsiya Ushbu maqolada sovet davlatining majburiy ko'chirish siyosati g'arb tarixshunosligi manbalarida yoritilishi hamda, deportatsiya siyosatining davlatlari tadqiqotchilari tomonidan o'rganilishi, sovet davlati deportatsiya siyosatining yuzga kelishi haqida keng ko'lamda yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: qatag'on qurbonlari, deportatsiya, SSSR, davr, urush, g'arb olam, tarixchi, ilmiy – tadqiqot, xalqaro konferensiya.

Abstract In this article, the coverage of the forced relocation policy of the Soviet state in the sources of Western historiography, as well as the study of the deportation policy by the researchers of the countries, the emergence of the deportation policy of the Soviet state is widely covered.

Key words: victims of repression, deportation, USSR, period, war, Western world, historian, scientific research, international conference.

Tarixni yaratishda istiqlolgacha bo'lgan tariximizning u yoki bu muammosi xususida bildirilgan fikr, mulohaza, qarashlar bilan tanishish, ularning yutuq va kamchiliklarini odilona baholash zarur. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z faoliyatining dastlabki davridayoq, sovet rejimining qatag'on siyosati va uning fojiali oqibatlarini o'rganish masalasini qayta dolzarb vazifa sifatida kun tartibiga qo'ydi. Har bir viloyatda Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyining universitet va institutlar qoshida filiallarini tashkil qilinishi kerakligi, qatag'on qurbonlari xotirasi bo'yicha maktab darsliklarida maxsus dastur asosida o'qitish tizimini ham ishlab chiqish zarurligini ta'kidlandi.¹ Mustaqillik yillarida haqqoniy o'rganila boshlangan keng

¹ Мирзиёев Ш. М. Қатагон қурбонларини ёд этиш маросимидаги нутқидан // “Халқ сўзи”, 2017 йил, 31 август.

qamrovli mavzulardan biri bu sovet davlati 1930-1950-yillarda amalga oshirgan xalqlarni majburiy ko'chirish siyosati va uning fojiali oqibatlari masalasidir. Deportatsiya siyosati Stalin boshchiligidagi kompartiya rahbariyatining sovet xalqiga nisbatan olib borgan qatag'on siyosatida o'ziga xos salmoqli o'rin tutadi. Sovet davlatining deportatsiya siyosati tarixini o'rganish tarixshunoslik fanining bugungi kundagi dolzarb vazifalaridan biri sanaladi. Deportatsion siyosat masalasi bo'yicha ilk tarixshunoslik tadqiqotlari g'arb davlatlarida yuzaga kelgan. 1956-yilda Amerika Qo'shma Shtatlarida Lui de Ionganing "Ikkinchi jahon urushidagi nemis beshinchi kolonnasi" nomli monografiyasi²e'lon qilinadi. Bu monografiyada muallif Volgabo'yi nemislarining deportatsiya qilinish sabablarini tahlil qilishga harakat qilgan, lekin zaruriy manbalar ozligi bois, bu muammoni to'la yoritma olmagan.

Foydalanilgan manbalarning bunday uzuk-yuluqligiga qaramay, R.Konkvest SSSRdagi xalqlar deportatsiyasi xronologiyasi va deportatsiya masalalariga bog'liq birmuncha haqiqatga yaqin ma'lumotlarni birinchi bo'lib tarixshunoslikka olib kirishga muvaffaq bo'lgan. U birinchi bo'lib SSSRdagi xalqlar deportatsiya qilingan hududlarning xaritasini ham keltirishga muvaffaq bo'lgan³.

1972-yilda Martin Gilbertning "Rus tarixi Atlasi"ning birinchi nashri e'lon qilindi va bunda SSSRdagi etnik deportatsiyalarning asosiy yo'nalishlari ko'rsatilgan xaritalar ham kiritildi. Bu xaritalar sovet davlatidagi 1941 – 1945-yillardagi deportatsiyalarnigina qamrab olgan edi, xolos.

Dehqon xo'jaliklarining quloq qilinishi va etnik deportatsiyalar haqida A.Soljenitsin "Архипелаг ГУЛАГ"⁴ asarining "Bizning kollonizatsiya tarixi" bobida yoritib o'tilgan⁵. Stalin davri deportatsiyalari va maxsus posyolkalardagi surgun qilingan kontingentlar taqdiri g'arb olamiga Parijda nashr qilingan ushbu uch tomlik

² Ионг Л. Немецкая пятая колонна во второй мировой войне. – Москва: ИИЛ, 1958.

³ Поболь Н.Л., Полян П.М. Сталинские депортации. 1928-1953. – М.: МФД: Материк, 2005. – С. 14-15.

⁴ Солженицин А.И. Архипелаг Гулаг: опыт художественного исследования. В 3-х томах 7 частях. – Париж: YMCA-Press, 1973-1975.

⁵ Conquest R. Soviet deportation of nationalities.– London - New York, 1960.

asar orqali keng ma'lum bo'lgan edi. A.Soljenitsin tomonidan tasvirlangan manzaralar aniq manbalarga asoslanmaganligi sababli unda maxsus ko'chirilganlar miqdori keskin ko'paytirib yuborilgan. "Arxipelag GYLIAT" memuar-publitsistik harakterdagi asar bo'lganligi uchun ham, unda qatag'on qilingan shaxslar miqdori xususida aniq raqamlar o'rin olmagan. Bu mashxur asar dunyoning ko'plab adabiy tillariga ommaviy ravishda tarjima qilingan va u dunyoning ko'pgina mamlakatlari xalqlari bu asar orqali stalincha qatag'on siyosati haqida ma'lum tasavvurga ega bo'lgandi. Ko'rib o'tilayotgan yillarda xorijiy davlatlarda chop etilgan deportatsion siyosat tarixiga oid asarlar qatorida 1978-yilda Nyu Yorkda rus tilida chop etilgan (1979-yilda esa ingliz tilida nashr etilgan) sovet davlatining sobiq fuqarosi Aleksandr Nekrichning "Jazolangan xalqlar" kitobini⁶ ham sanab o'tish mumkin. Mazkur asarning qo'lyozmasi muallif tomonidan 1970-yillar boshida, muallif hali SSSRda yashayotgan davridayoq tayyor bo'lgan edi. A. Nekrich R.Konkvestdan farqli ravishda sobiq maxsus ko'chirilganlar bilan uchrashib, ulardan og'zaki va yozma ma'lumotlar olishga, maxsus surgun hududlariga borib, u yerlardan ham materiallar yozish imkoniyatiga ega bo'lgan edi. A.Nekrich o'z kitobini yozishda Ikkinchi jahon urushi tarixi masalalariga oid bir qator sovet vag'arb tarixchilarining asarlaridan, SSSRning chekka milliy hududlarida urush yillarida va urushdan keyingi yillarda partiya ko'rilishi tarixiga doir ishlardan ham foydalangan. Kitobning alohida bir bobida esa Qrim, Kalmikiya va Shimoliy Kavkazdan turli millat vakillarining deportatsiya qilinishi, "jazolangan xalqlar"ning SSSRning turli hududlaridagi hayoti, ularning maxsus ko'chirilganlik maqomi va nihoyat, bu xalqlarning o'z vatanlariga qaytarilish jarayonlari yoritilgan. Aytish mumkinki, bu kitobda SSSRdagi dastlabki etnik deportatsiyalar tarixi kam o'rganilgan ilmiy muammo sifatida va alohida masala sifatida tadqiq etilgan. Yana shuni qayd etib o'tmoq lozimki, aynan R.Konkvest va A.Nekrichlar "jazolangan xalqlar" muammosini birinchi bo'lib, ilmiy - tadqiqot obyekti sifatida ilgari surdilar va bu masalani o'rganish bo'yicha ilk qadamni qo'ydilar.

⁶ Некрич А. Наказанные народы. - Нью-Йорк: Хроника, 1978. (Nekrich A.M. The punished peoples. New York, 1979.)

SSSRning Uzoq Sharq hududlaridan koreyslarning majburan Qozog‘istonga va O‘rta Osiyo respublikalariga deportatsiya qilinishi masalasi G‘arb tarixchi olimlaridan V.Kolarz⁷, J.Stefan⁸, Ko Son Mu⁹ tadqiqotlarida o‘rganilgan. Xususan, V. Kolarz birinchilardan bo‘lib koreyslarning majburiy ko‘chirilish masalasiga to‘xtalgan va Uzoq Sharq mintaqasidagi majburiy deportatsiyalar arafasidagi ichki va tashqi siyosiy jarayonlarga birmuncha haqqoniy baho bera olgan. Xelsinki universiteti professori Ko Son Muning monografiyasida esa sovet koreyslarining etnomadaniy hayoti tarixi ancha keng spektrda tadqiq etilgan, ayni vaqtda ularning Qozog‘istonva O‘rta Osiyoga deportatsiya qilinishi masalasi yoritilgan. Kitob asosan, koreyslarning O‘rta Osiyoga deportatsiya qilinishining 50 yilligiga bag‘ishlangan. Rossiya Federatsiyasi va MDHning boshqa davlatlaridagi markaziy va mintaqaviy arxivlaridagi maxfiy fondlarning ochilishi 1980-yillar oxiridan e‘tiboran SSSRdagi deportatsiyalar tarixi muammosiga bo‘lgan qiziqishlarni keskin oshirib yubordi. Aynan shu davrdan boshlab bu muammoga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar e‘lon qilina boshladi. 1980-yillar oxiridan to bugungi kunlarga SSSRda va Rossiya Federatsiyasida xalqlar deportatsiyasi va maxsus ko‘chirilganlar masalasiga doir e‘lon qilingan ilmiy tadqiqot ishlari bu muammo bo‘yicha G‘arb mamlakatlarida yaratilgan tadqiqot ishlarini deyarli yo‘q qilib yubordi. Bu boradagi ma‘lum tadqiqot ishlari keyingi yillarda asosan, Germaniya Federativ Respublikasi (GFR) da va AQShda olib borilmoqda. Nemis tarixchilaridan A.Aysfeld, V.Gerdt, V.Kriger, V.Brul¹⁰ asosan Volgabo‘yi nemislarining deportatsiya qilinishi tarixi bilan shug‘ullangan bo‘lsalar, S.Merl¹¹ esa “quloqlar

⁷ Kolarz W. Russland und seine asiatischen Volker. Frankfurt am Main Europaische Verl.Anst. 1956.

⁸ Stephan, J. The Korean Minority in the Soviet Union // Central Asia Review (Mizan). 1971. Vol.19. No 3. – P. 138-150.

⁹ Songmoo Kho. Koreans in the Soviet Central Asia. Helsinki, Studie Orientalia, 1987. Vol.61.

¹⁰ Eisfeld A., Herdt V. (Hrsg.). **Deportation, Sondersiedlung, Arbeitsarmee: Deutsche in der Sowjetunion 1941 bis 1956** Koln: Verlag Wissenschaft und Politik, 1995; Dahmann D. **Operation erfolgreich durchgefuehrt. Die Deportationen der Wolgadeutschen 1941 \\ Flucht und Vertreibung: zwischen Aufrechrung und Verdraengung.** Wien, Picus-Verlag, 1994.S.201-226; Bruhl V. **Die Deutschen in Sibirien . Eine hundertjaehrige Geschichte non der Ansiedlung bis zur Auswanderung. 2 Bände.** Nurnberg, Historischer Forschungsverion 2003; Krieger V. **Deportation der Ruslanddeutschen 1941-1945 und die Folgen. In: Von der Autonomiegruendung zyr Verbannung und Entrechtung. Die Jahre 1918 und 1941 bis 1948 in der Gesichichte der Deutschen in Russland.** Hg. Alfred Eisfeld. Stuttgart, 2008. – S.106-122.

¹¹ Merl S. Das System der Zwangsarbeit und die opferzahl im Stailinsmus// Geschichte in Wissenschaft und Unterricht. 1995. Jg.46. Heft 5/6. – S. 277-301.

surguni” tarixini tadqiq etganlar. D.Dalman va G.Xirshfeld¹² tahriri ostida nashr etilgan asar tarixchi-tadqiqotchilarning alohida e’tiboriga sazovordir. Mazkur kitob 1995-yili Germaniyaning Mulxaym shahrida o’tkazilgan tarixshunoslik masalalariga bag’ishlangan xalqaro konferensiyada qilingan ma’ruzalar materiallarini o’z ichiga olgan. Konferensiya o’z oldiga natsional-sotsializm va stalinizmning yuzaga kelishi, uning sabablari, mohiyati, oqibatlarini, ya’ni bu ikki tizim davrida yuzaga kelgan ommaviy qirg’inlar hamda ommaviy ko’chirishlar tarixini keng va har taraflama muhokama qilishni maqsad qilib qo’ygan edi. Konferensiyadan o’rin olgan ma’ruzalarning salmoqli qismini jazo lagerlar sistemasi, kishilarni majburiy mehnatga safarbar etish masalasiga, ya’ni asosan sobiq SSSRdagi va Germaniyadagi xalqlar deportatsiyasi va majburiy ko’chirish masalasiga bag’ishlangan edi. Shuningdek, ma’ruzalar ichida Belorussiyadan, Ukrainadan va Moldaviyadan Ikkinchi jahon urushi yillarida deportatsiya qilingan va majburan ko’chirilgan xalqlar taqdiri masalasiga doir ma’ruzalar ham o’rin olgan. SSSRdagi stalinizm davridagi ommaviy qatag’onlar va xalqlar deportatsiyasi siyosati Stefan Kurtua yetakchiligidagi fransuz tarixchi olimlari tomonidan yozilgan “Kommunizmning qora kitobi: jinoyat, terror, repressiya” nomli kitobda¹³keng va atroflicha tahlil qilingan. Xalqlar deportatsiyasiga doir ko’plab va xilma-xil manbalarning tanqidiy tahlili bo’yicha amerikalik olimlarning, xususan M.Gelb¹⁴ tadqiqotlari (koreyslar, finlar va boshqa oz sonli millatlarning deportatsiyasiga oid ishlar), P. Xolkvistning ishlari (asosan, Birinchi jahon urushi davrida chor Rossiyasining, shuningdek, bolsheviklar Rossiyasining ilk yillaridagi deportatsiya siyosati. Muallifning bu boradagi xizmati shundaki, deportatsiyalar siyosati bo’yicha bolsheviklarning chor Rossiyasining merosiy davomchisi bo’lganini aniq

¹² Dahlmann D., Hirschfeld G. (Hrsg). Lager, Zwangsarbeit, Vertreibung und Deportation: Dimensionen der Massenverbrechen in der Sowjetunion und in Deutschland 1933 bis 1945. Essen : Klartext-Verl, 1999

¹³ Courtois, S... Le livre noir du communisme: crimes, terreur et repression. Paris: Laffont, 1997; Kurtua С. и др: **Черная книга коммунизма: преступления; террор, репрессии.** – М.: Три века истории, 1999.

¹⁴ Gelb M. An Early/ Soviet Ethnic Deportation: The Far-Eastern Koreans // The Russian Review. July 1985 .Vol. 54.p. 389-412; Gelb M. The Western Finnic Minorities and the Origins of the Stalinist Nationalities Deportationis// Nationalities Papers. 1996. Vol. 24,No. 2. – P. 237-267.

faktik dalillar asosida tahlil etgan)¹⁵ muhim o'rin tutadi. Boshqa bir amerikalik tarixchi Y.O.Pol monografiyasida¹⁶ esa SSSRdagi 1937-1945-yillardagi etnik tozalashlar tarixi yoritilgan. XX asrdagi Yevropadagi etnik tozalashlar, shuningdek, chechenlar, ingushlar, qrim tatarlarining deportatsiya qilinishi masalalari Norman Neymark¹⁷, Terri Martin¹⁸ va Brayan Vilyams¹⁹ tadqiqotlarida umumiy kontekstda yoritib o'tilgan. Mazkur mualliflarning har biri Rossiya arxivlarida saqlanayotgan mavzuga oid keng ko'lamdagi hujjat va materiallarni tanqidiy o'rganib, ilmiy muomalaga kiritganlar. Brayan Vilyamsning monografiyasida 1944-yildagi deportatsiyalar masalasi qrim tatarlarining majburan ko'chirilishi tarixiga qaratilgan. Norman Neymark esa o'z tadqiqotida turli davrlarda va turli davlatlarda amalga oshirilgan majburiy ko'chirishlar va deportatsiyalar muammosini o'zaro taqqoslab tahlil qilar ekan, sovet davridagi deportatsiyalar xususida quyidagicha xulosaga keladi: "...chechenlar, ingushlar va qrim tatarlarining majburan ko'chirilishi Stalin boshchiligidagi rahbariyatning bu xalqlarga nisbatan genotsid qo'llash, ya'ni tamoman qirib tashlash maqsadini aks ettirmas edi. Bu tadbirda shaxs jisman saqlangan holda millatning tubdan yo'q qilinishi, ularning boshqa xalqlar bilan assimilyatsiyalanib ketishi ko'zda tutilgan edi. Stalin davri deportatsiyalari Gitlerning yahudiylar va lo'lilarga nisbatan qo'llagan genotsidi ya'ni, ularni tamoman qirib tashlash siyosatidan shu jihati bilan farq qiladi"²⁰.

Millati grek bo'lgan olim Xristafor Keshandining "Greklarni SSSR tomonidan 1949-yilgi ko'chirishi" nomli kitobi²¹ ahamiyatlidir. Ushbu kitob materiallari 2014-yilda SSSR greklarining Qora dengiz mintaqasidan chiqarilishining 65 yilligi munosabati

¹⁵ Holquist, P. "Conduct merciless mass terror" Decosask ization on the Don, 1919// Cahirs du Monde russe. 1997. Vol.28.No. 1-2. – P. 127-162.

¹⁶ Pohl J.O. Ethnic Cleansing in the USSR, 1937-1949. Westport. Connecticut. – London: Greenwood Press, 1999.

¹⁷ Nimark N.M. Fires of hatred: ethnic cleansing in Twentieth-century Europe. Cambridge, Massachusetts- London, England: Harvard University Press, 2001.

¹⁸ Martin T. The Orgion of Soviet Ethnic Cleansing// The Jurnal of modem History. December 1998. Vol. 70.No. 4. – P. 812-161.

¹⁹ Willams B.G. The Crimean Tatars.Diaspora Experience and the Forging of a Nation.– Leiden, 2000.

²⁰ Неймарк Н.М. Пламя ненависти: этнические чистки в Европе XX века. - М.: АИРО-XX, 2005. С. 162163.

²¹ Кешаниди Л.Х., Выселение греков СССР в 1949 году, Афины 2014.

bilan Afinada nashr qilingan. Kitobda 1949-yilga kelib SSSRda yashovchi grek fuqarolarining eng ko'p soni Abxaziya ASSRda, juda kam qismi Akariyada va Krasnodar o'lkasida yashashganligi, ularning deportatsiyaga uchrash sabablari va mehnat turmush sharoiti haqida ilmiy ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari SSSRning deportatsiya siyosati haqida Yevropa, Amerika va Osiyo davlatlari ilmiy tadqiqotchilari tomonidan dissertatsiyalar, ilmiy maqolalar hamda anjuman to'plamlari chop qilindi.

Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мирзиёев Ш. М. Қатағон қурбонларини ёд этиш маросимидаги нутқидан // “Халқ сўзи”, 2017 йил, 31 август

2. Axmedov A., Xamroqulov S., Farg'ona shahriga Qrim va Gruziyadan maxsus ko'chirilganlar masalasiga doir. // “Farg'ona vodiysi tarixi yangi tadqiqotlarda” mavzuidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Farg'ona, 2012.

3. Raxmankulova A., XX asrning 30-40-yillarida Farg'ona viloyatiga zo'rlik bilan ko'chirilgan xalqlar tarixidan. // “Farg'ona vodiysi tarixi yangi tadqiqotlarda” mavzuidagi Respublika ilmiy konferensiyasi materiallari. –Farg'ona, 2012.

4. Shamsutdinov R. T., O'zbekistonda sovetlarning quloqlashtirish siyosati va uning fojeali oqibatlari. - T.: Sharq, 2001.

5. O'zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. /Tuzuvchilar: M. Jurayev, R. Nurullin, S. Kamalov va boshqalar. - T.: Sharq, 2001.

6. [Всероссийская перепись населения 1939 года. Национальный состав населения по регионам России. // «Демоскоп»](#)